

YOSHLAR MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING CHET EL TAJRIBASI

J.B.Jabborov

Guldu Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

G'aybullayeva Madina

GulDU 4-bosqich 40-22 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20657415>

“Yoshlar bilan ishlash barchamiz uchun – Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha bo'lgan har bir rahbarning eng asosiy vazifasi bo'lishi kerak.”

Sh.Mirziyoyev

Jahonda bugun yoshlar bandligi masalasi har qachongidanda dolzarb ahamiyat kasb etmoqdadir. Mehnat jarayoni transformatsiyasi, raqamli texnologiya, axborot texnologiyalari va freelancing faoliyati kabilar bugun mehnat bozoriga va globallashib borayotgan dunyo hamjamiyati bandlik mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda yoxud yoshlarning o'ziga xos demografik guruh ekanligini inobatga olgan holda bugun ular mehnat bozoriga yangicha yondashuvlar zarurligini, qolaversa, bu masalada chet el tajribalari o'rganish samarali bo'ladi degan xulosa asosli bo'ladi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Dunyoning rivojlangan davlatlarida yoshlar mehnat bozorini tartibga solish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston va dunyo hamjamiyati misolida shuni ta'kidlash mumkinki, bugun yoshlarga faqat diplom yetarli bo'lmayapti, ular qo'shimcha(tadbirkorlik, qo'shimcha ish, kasb-hunar va h.k.)larga ehtiyoj sezishmoqda. Jumladan, Germaniya tajribasida yoshlar bandligini ta'minlashning asosiy vositasi dual ta'lim tizimi hisoblanadi. Ushbu tizimda yoshlar bir vaqtning o'zida ta'lim muassasasida o'qib, korxonalarda amaliyot o'taydi. Natijada bitiruvchilar amaliy tajribaga ega bo'ladi, ish beruvchilarning malakali kadrlarga ehtiyoji qondiriladi, yoshlar ishsizligi darajasi kamayadi. Germaniya ilk “Ijtimoiy davlat” maqomini olgan mamlakatdir. Ushbu davlatda demokratiyaning oliy shakli shakllangan. Yoshlar, umuman aholi prinsipiallik, mukammallikka intilishadi. Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi¹. **Dual ta'limda** o'quvchi yoki talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarni esa korxona yoki tashkilotda egallaydi. Ya'ni, ta'lim va ishlab chiqarish jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi. Umuman talabalar, yoshlar 60-70 foiz malakani amaliyotdan olishadi.

Estoniyada yoshlarni raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishga katta e'tibor qaratiladi. IT va raqamli ko'nikmalar bo'yicha bepul kurslar tashkil etiladi, yoshlar uchun startup loyihalar qo'llab-quvvatlanadi, elektron mehnat birjalari orqali ish qidirish imkoniyatlari kengaytirilgan. Estoniyada yosh ishchilar kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslari to'laqonli yaratilgan. Estoniya Ta'lim to'g'risidagi qonunida ta'lim tizimining umumiy asoslarini belgilaydi va kasbiy ta'limni mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Bunda kasbiy ta'lim va amaliyot tizimini rivojlantirish, o'quv dasturlarini ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqish, hayot davomida ta'lim (lifelong learning) tamoyilini joriy etish ushbu davlat tajribasida keng qo'llaniladi. Qonun yoshlarni raqamli, texnik va amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilaydi. Kasbiy ta'lim va o'qitish

¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son, 17-modda.

to'g'risidagi qonunida esa kasbiy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soladi va ish asosidagi o'qitish (work-based learning) tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dual ta'lim elementlarini joriy etish, korxonalarda amaliyot o'tashni majburiy tarkibiy qism sifatida belgilash, yosh ishchilarning malakasini baholash va sertifikatlash tizimini yaratish ushbu davlatda keng qo'llaniladi. Bu qonun yoshlarning nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. Estoniya Mehnat bozori xizmati va nafaqalar to'g'risidagi qonunida ishsiz yoshlarni qo'llab-quvvatlash, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash xizmatlarini tashkil etishni nazarda tutadi. Kasbiy o'qitish kurslari, stajirovka va amaliyot dasturlari, karyera maslahatlari va ishga joylashtirish xizmatlari, ish beruvchilarga yoshlarni ishga qabul qilish uchun subsidiyalar beriladi, yoshlar mehnat bozoriga tezroq moslashadi va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ladi. "Estonia 2035" rivojlanish strategiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Strategik yo'nalish	Maqsad va mazmuni	Asosiy faoliyat yo'nalishlari	Natijadorlik ko'rsatkichlari
Faollik (Hoog)	Yoshlarning jamiyat rivojida faolligini oshirish, ularning ta'lim, madaniyat, iqtisodiyot va innovatsiyalar sohasidagi ishtirokini kengaytirish	Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash; iste'dodlarni aniqlash va rivojlantirish; tadbirkorlik va ijodkorlikni rag'batlantirish	Yoshlar boshqarayotgan NNTlar ulushi; yoshlar loyihalari soni; yosh tadbirkorlar ulushi
Ishtirok (Osa)	Yoshlarning fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish, demokratik qadriyatlarni rivojlantirish	Qaror qabul qilish jarayonlariga yoshlarni jalb etish; fuqarolik faolligini qo'llab-quvvatlash; davlat institutlariga ishonchni oshirish	Yoshlar kengashlari faoliyati; saylovlarda qatnashayotgan yoshlar ulushi; volontyorlik faoliyatidagi yoshlar soni
Mustaqillik (Ise)	Yoshlarning shaxsiy rivojlanishi va mustaqil hayotga tayyorgarligini ta'minlash	Sifatli yoshlar xizmatlarini rivojlantirish; norasmiy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish; yoshlar ehtiyojlarini monitoring qilish	Yoshlar xizmatlaridan foydalanish darajasi; xizmatlardan qoniqish ko'rsatkichi
Ishonch va xavfsizlik (Kindlus)	Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularning jamiyatdan chetlashib qolishining oldini olish	Teng imkoniyatlarni ta'minlash; ijtimoiy yakkalanishni kamaytirish; xavf guruhidagi yoshlarni qo'llab-quvvatlash	NEET yoshlar ulushi; qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanayotgan yoshlar ulushi

Ushbu strategik hujjat Estoniyaning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini belgilaydi. Unda inson kapitalini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash alohida yo'nalish sifatida ko'rsatilgan.

1. Raqamli savodxonlikni oshirish.
2. IT va texnologik ko'nikmalarni rivojlantirish.
3. Innovatsion va tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish.

4. Ta’lim va biznes o’rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

Estoniya Malaka tizimi Milliy malaka tizimi kasbiy ko’nikmalarni baholash va tan olishning yagona standartlarini belgilaydi. Kasbiy malakalarni darajalar bo’yicha tasniflash. O’quv natijalarini mehnat bozori talablariga moslashtirish. Norasmiy va mustaqil o’rganilgan ko’nikmalarni tan olish. Yoshlar uchun foydasi Yosh ishchilar o’z malakasini rasmiy tasdiqlash va mehnat bozorida raqobatbardosh bo’lish imkoniga ega bo’ladi. Ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi – o’quv dasturlari ish beruvchilar ehtiyojiga moslashtiriladi. Raqamli iqtisodiyotga yo’naltirilganlik IT va raqamli ko’nikmalar ustuvor ahamiyatga ega. Amaliyotga asoslangan o’qitish – yoshlar korxonalarida real ish tajribasini oladi. Hayot davomida ta’lim – kasbiy ko’nikmalarni doimiy yangilab borish tizimi mavjud. Davlat va xususiy sektor hamkorligi – kasbiy tayyorgarlik jarayonida biznes faol ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytganda Estoniyada yosh ishchilar kasbiy ko’nikmalarini rivojlantirish quyidagi hujjatlar va tizimlarga tayanadi:

1	Education Act	Estoniyada Education Act 1992-yilda qabul qilingan bo’lib, mamlakat ta’lim tizimining shakllanishi, faoliyati va rivojlanishining huquqiy asoslarini belgilaydi.
2	Vocational Educational Institutions Act	Estoniyada kasbiy ta’lim muassasalarining faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi.
3	Labour Market Services and Benefits Act	Estoniyada mehnat bozorini tartibga solish, ishsizlarni qo’llab-quvvatlash, kasbiy tayyorlash va bandlikni ta’minlashga qaratilgan asosiy huquqiy hujjatlardan biridir.
4	“Estonia 2035” strategiyasi	“Estonia 2035” strategiyasi yosh ishchilar kasbiy ko’nikmalarini rivojlantirishning strategik asosi bo’lib, unda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim va mehnat bozori integratsiyasini kuchaytirish, hayot davomida ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda innovatsion va tadbirkorlik ko’nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.
5	Estonian Qualifications Framework	stoniyaning Milliy malakalar tizimi bo’lib, 2008-yilda Occupational Qualifications Act asosida joriy etilgan. Ushbu tizim ta’lim va kasbiy malakalarni yagona mezon asosida baholash, tan olish va mehnat bozori talablariga moslashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu huquqiy asoslar yoshlarning zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh va amaliy ko’nikmalarga ega bo’lib yetishishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari bugungi kunda Niderlandiya tajribasida yoshlar uchun moslashuvchan bandlik shakllari rivojlangan. Xususan yarim stavkali ishlar, masofaviy mehnat, o’qish va ishlashni birlashtirish imkoniyatlari.

Bu yoshlarning mehnat bozoriga erta kirib kelishiga yordam beradi.

Janubiy Koreya tajribasida yoshlar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlashga alohida e’tibor beradi. Xususan, yosh tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar, biznes-inkubatorlar, startap markazlari faoliyati yo’lga qo’yilgan.

AQSh tajribasida yoshlar bandligi kasbiy tayyorgarlik dasturlari, stajirovka va amaliyot dasturlari bilan tartibga solinadi. xususiy sektor bilan hamkorlik asosida tashkil etiladi. Ko‘plab kompaniyalar talaba va bitiruvchilar uchun pullik amaliyot dasturlarini taklif qiladi.

Yaponiya tajribasida “maktab–universitet–korxona” hamkorligi kuchli rivojlangan. Bitiruvchilarni ishga joylashtirish markazlari mavjud, korxonalar yosh mutaxassislarni tayyorlashda faol ishtirok etadi, uzoq muddatli bandlik tizimi qo‘llaniladi.

Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi².

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, yoshlar mehnat bozorini samarali tartibga solishda quyidagi omillar muhim. Bular ta’lim va mehnat bozorining integratsiyasi, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash dasturlari, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish. Ushbu tajribalarni O‘zbekistonda qo‘llash yoshlar bandligini oshirish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozorining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi (qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun - o‘zbekiston respublikasining qonuni, 23.09.2020 yildagi o‘rq-637-son, 17-modda.
3. Estonian ministry of education and research – www.hm.ee
4. Estonian qualifications authority – www.kutsekoda.ee
5. Estonia 2035 strategy – www.valitsus.ee
6. Reviews of vocational education and training: estonia

² (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son), 79-modda.